



**MDH DAVLATLARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING O'ZIGA
XOS YO'LLARI**

Zikrulloh Rahmonaliyev

Farg'onan davlat universiteti yurisprudensiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mustaqil Davlatlar Hamdostligi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining faol harati va ularning bu illat yuzasidan asos deb biladigan fikr va mulohazalari batafsil yoritilib ko'rsatilib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: "MDH", "Korrupsiya", "Ichki va tashqi mustaqil", "Magistratura".

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash masalasi butun dunyoda o'ziga xos global masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash choralari qanchalik samarali yo'lga qo'yilsa shu davlatning ertangi taraqqiyoti shu darajada ijobiy tomonga o'sib boradi.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishda OTMga o'qishga kirish imtihonlariga alohida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi, chunki mazkur masala MDH davlatlari oliy ta'limining eng og'riqli bosqichi xisoblanadi. Ukraina kirish imtihonlari bilan bog'liq islohotlarni korrupsiyaviy huquqbazarliklarni kelib chiqishiga xamohang tarzda o'zgartirib bordi.

Birinchidan, "Oliy ta'lim to'g'risida"gi Qonunga 2015 yilda o'zgartirish kiritilib, endilikda OTM test natijalaridan tashqari ball beriladigan boshqa imtiyozli asoslarni va qabul qoidalarini o'z saytida e'lon qilishi belgilandi. Bu adolat va xolislikni kafolatlamagan bo'lsada, lekin nomzodlarga imkoniyatlarini oldindan baholash imkonini berdi.

Ikkinchidan, "Oliy ta'lim to'g'risida"gi Qonunga o'zgarish kiritilib, OTMga kirishning aniq tartiblari belgilandi. Ta'lim va fan vazirligi 2015 yil 22 dekabrda "Maxsus tartib"ni qabul qilib, imtiyozli holatlar uchun OTM tomonidan beriladigan ballarni maksimal qat'iy miqdorlarini belgiladi. Xususan, 3 yoki 4 ta maxsus fan bo'yicha imtihon natijalari umumiy ballining kamida 85 foizini, har bir fan bo'yicha beriladigan ballar umumiy ballni eng kamida 20 foizini tashkil etishi, milliy darajadagi sport va san'at yo'nalishlari bo'yicha g'olib bo'lgan nomzodlarga beriladigan ballar umumiy ballning 25-50 foizi oraliq'ida bo'lish kerakligi, ulardan ikkita fan bo'yicha olinadigan imtihon ballari umumiy ballining 20 foizidan kam bo'imasligi, o'rta məktəbni tugatish Sertifikat baholari bo'yicha beriladigan ballar umumiy ballning 10 foizidan ko'p bo'imasligi, fan bo'yicha musobaqa g'oliblariga beriladigan ballar umumiy ballning 5 foizidan ortiq bo'imasligi belgilandi.

Uchinchidan, 2016 yildan nomzodlarga davlat grantlarini qidirib tanlash imkoniyati yaratilib, endilikda nomzod tartib asosida imtihon fanlari mos keluvchi 15 ta OTMga hujjat topshirishi mumkin. Bu tartib talabalarga davlat grantida o'qish

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



uchun qo'shimcha imkoniyat yaratish bilan birga davlatga mehnat bozori talablarini ta'minlaydi.

Kirish imtihoni bosqichidagi korrupsiyani markazlashgan test tizimini yaratish orqali kamaytirishga erishildi. Tashqi mustaqil test tizimi 2015 yilda tashkil etilib, imtihon 12 ta maktab o'quv dasturi fanlaridan yozma shaklda olinadigan imtihon hisoblanadi. Testlar oliy ta'lif sifatini ta'minlash Milliy agentli tomonidan yaratilib, savollar milliy o'quv dasturidagi fanlar doirasida, oliy ta'lif uchun muhim bo'lgan jixatlarni inobatga olgan holda tuziladi va xalqaro ijobjiy tajribalar asosida takomillashtiriladi.

O'tkazilgan so'rovnoma talabalar va ota-onalarning 65 foizi test tizimni tashkil etishni maqullagan bo'lsa, 58 foizi tizim korrupsiyani kamaytirishini ta'kidlagan.

Agentlik testlarni o'tkazishga mas'ul bo'lib, test savollari kuchli nazorat ostida chiqariladi va muhrlanadi. Nomzodlar internet orqali ro'yhatdan o'tgandan so'ng agentlik ularga imtihon joyi va vaqt haqida yozma xabar, maxsus kod yozilgan imtihonga kirish ruxsatnomasini jo'natadi. Imtihon alohida honada 15 nafar nomzodlar ishtirokida, 2 nafar fan bo'yicha nomutaxassis xodimlar tomonidan nazorat qilinadi. Test savollari imtihondan 2 soat avval kuzatuvchilar tomonidan muxrlagan holda beriladi va test talabalar qarori bilan ulardan biri tomonidan barchaning ishtirokida ochiladi. Talabalar noqonuniy usullar foydalangan taqdirda imtihondan chetlatiladi. Imtihondan so'ng testlar yig'iladi va tekshirish uchun jo'natiladi. Imtihon natijalari agentlik saytida e'lon qilinadi.

Magistraturaga kirish uchun tashqi imtihon topshirilmaydi va qabul qoidalari OTM tomonidan belgilanadi. Nomzodlar ingliz tili va tanlagan yo'nalishlari bo'yicha maxsus fandan test topshiradi. Magistratura imtihonlari markazlashmagani sababli korrupsiyaviy holatlarga keng yo'l ochadi. Ayrim OTMdA magistratura bosqichi uchun kirish imtihonlari mavjud emas, nomzodlar bakalavr bosqichining o'rtaча bxolari asosida qabul qilinadi. Korrupsiyaviy holatlarni inobatga olib, sog'liqni saqlash, farmatseftika va veterenariya sohalari bo'yicha oliy ta'lif sifatini ta'minlash Milliy agentli tomonidan o'tkaziladigan tashqi test natijalariga asosan magistratura bosqichiga qabul qilish belgilandi.

Biroq, nomzodlar magistraturaga kirish imtihoni talablari ochiq e'lon qilinmasligi, shuning uchun, OTM mansabdorlari magistraturani do'stlariga sovg'a, siyosiy homiylargacha pora sifatida berilishini ta'kidlagan.

"Oliy ta'lif to'g'risida"gi Qonunda OTM talabalarni yotoqxona bilan ta'minlashi kafolatlangan bo'lsada, lekin ular 40 foiz talabani yotoqxona bilan ta'minlash imkoniyatiga ega. Talabalarni yotoqxona bilan ta'minlash umumiy tartibga solinmagani va yakka shaxslar tomonidan boshqarilishi korrupsiyaviy holatlarga sabab bo'lgan. Ijtimoiy so'rovnoma 6.4 foiz talabalar pora evaziga



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



yotoqxona olishlarini bildirgan. Yotoqxona bilan bog'liq korrupsiyaning asosiy sababi joy yetishmovchiligi hisoblanadi.

Gruziya.

So'ngi yillarda Gruziya Respublikasi oliy ta'lism sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ijobiy islohotlarni amalga oshirishga erishdi. Markazlashgan boshqaruvdan qochish va bozor munosabatlariiga o'tish oliy ta'lism rivojlanishining asosi bo'ldi.

Korrupsiya ta'limga uchta eng muhim maqsadiga to'sqinlik qiladi: ta'lism olish imkoniyati, tengligi va sifatiga. Gruziya oliy ta'lism sohasida islohotlarni amalga oshirishda aynan shu uchta salbiy oqibatlarni oldini olishga tayandi: 1) oliy ta'limga adolatli yo'l bilan erishishni ta'minlash uchun Yagona Milliy kirish imtihon tizimini tashkil etdi va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga alohida davlat grantlari ajratdi; 2) ta'lism sifatini yuqori darajada saqlash uchun OTMni akkreditatsiyadan o'tkazishni qat'iy tartibini belgiladi; 3) ta'lism olishda tenglikka va samaradorlikka erish uchun akademik va ma'muriy xodimlarni qayta shakllantirish masalasini ko'rib chiqdi.

Erkin axborotlar rivojlanish instituti tomonidan (Institute Development of Freedom Information) Gruziya ijob organlari ochiqligi o'rganilganda, unda Ta'lism va fan vazirligi eng yopiq vazirliklar ro'yxatida uchinchi o'rinni egallagan. Buning sababi, institut 10 OTMga imtiyozlar, ish haqi qo'shimchalari, talabalik maqomidan mahrum bo'lganlar soni haqida oddiy ma'lumotlarni so'rab yo'llagan 190 ta murojaat xatlariga rad javob olgan. Hukumat oshkoraliq masalasidagi tanqidiy fikrlarni to'g'ri baholab, faoliyatni ochiq va oshkoraligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratdi.

Gruziyada 2004 yildan OTMni talabalar soniga muvofiq ravishda moliyalashtirishni boshladi, 2006 yildan 100 foizli grantlardan tashqari 30, 50, 70 foizli grantlar joriy etildi, 2009 yildan magistratura bosqichi uchun ham grantlar ajratdi, 2009 yilda davlat va xususiy OTMlarda alohida rektorlari kengashi tashkil etdi. Mamlakat 2014 yilda oliy ta'lism sifatini ta'minlash bo'yicha Yevropa assosatsiyasiga a'zo bo'ldi.

Davlat mehnat bozori talabiga asosan zarur mutaxassislar talab etiladigan sohalarni moliyalashtirdi. Masalan, 2013 yilda qishloq ho'jaligi, tabiiy fanlar, muhandislik va qurilish sohalari bo'yicha to'liq grantlar joriy etdi.

Hukumat talabalarga ularni ijtimoiy holatidan (yetimlar, urush jabralanuvchilar) kelib chiqqan holda stipendiyalar ajratadi. "Oliy ta'lism to'g'risida"gi qonunga ko'ra, 6-10 foiz stipendiyalar ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar uchun ajratilishi kerak.

Oliy ta'lism tizimida korrupsiyaga qarshi keskin kurash olib borilib, 2004-2013 yillar davomida 8 nafar oliy ta'lism vaziri, 5 nafar Ta'lism Sifatini Oshirish Markazi direktori vazifasidan ozod qilindi.



OTMga kirish imtihonlari korrupsiyaviy huquqbuzarliklar kelib chiqishi mumkin bo'lgan muhim bosqich hisoblanadi. Shuning uchun, Gruziya ushbu bosqichga alohida e'tibor berib, 2005 yilda yagona milliy kirish imtihoni tizimini tashkil qildi. Transparency International tashkiloti tomonidan Gruziyada imtihonda qatnashayotgan 973 nafar talaba, 764 nafar ularning ota-onalari, 340 nafar boshqaruvchilar ishtirokida ijtimoiy so'rov o'tkazganda, 80 foiz talabalar, 79 foiz ota-onalar, 96 foiz boshqaruvchilar yangi imtihon tizimiga ishonch bildirgan.

Mazkur tizim orqali OTMdan korrupsyaviy huquqbuzarlik sodir etilishi mumkin bo'lgan muhim kirish imtihoni bosqichi ishonchli davlat markazi vakolatiga o'tkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza, 2018 yil 7 dekabr.
2. SH.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan murojaatnomasi, 2020 24 yanvar.
3. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Respublika Idoralararo komissiyaning yig'ilish bayoni, "Oliy ta'lif sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish va qonuniylikni ta'minlashga doir masalalar" 2019 yil 18 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma'lumotlari milliy bazasi, 2019 y., 06/19/5847/3887-son.
5. Osipian A. "Glossary of Higher Education Corruption with Explanations", 2009, p 26. <http://people.vanderbilt.edu/~ararat.osipian>. <http://www.osvita.org>.
6. Balikov P.N i drugiye "Organizatsiya psixologicheskoy raboti anti korruptionnoy napravленности в таможенных органах Российской Федерации" metodicheskiye rekomendatsii. - SPB, 2010.
7. OECD Reviews of Integrity in Education: Ukraine 2017. <https://read.oecd-ilibrary.org>.
8. Sofiya Nikolaeva, "Yehe Bologna process in Ukraine: the decade anniversary" General and Professional Education 2015 p – 66-74.